

Globalashuv Jarayonida Kibermakonda Yoshlar Ma'naviy-Axloqiy Dunyoqarashiga Ta'sir Qiluvchi Omillar

Karimova Muhlis Azizbek qizi
MG'MAHT yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada bugungi globalashuv jarayonida shaxs ma'naviy ruhiy dunyosiga tajovuz qilish, vayronkorlik, buzg'unchilik, axloqsizlik g'oyalarini tarqatuvchi mafkuraviy xurujlarni inobatga olib kibermakonda shaxs ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan illatlar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, kibermakon, "virtual madaniyat", ko'ngilochar muhit, zamonaviy omma, "ommaviy madaniyat".

Аннотация: В статье исследуются недостатки, негативно влияющие на духовную зрелость личности в киберпространстве с учетом идеологических атак, распространяющих идеи агрессии, разрушения, вандализма, аморальности в духовном мире личности в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: цифровые технологии, киберпространство, «виртуальная культура», развлекательная среда, современное сообщество, «массовая культура».


Annotation: The article examines the flaws that negatively affect the spiritual maturity of the individual in cyberspace, taking into account the ideological attacks that spread the ideas of aggression, destruction, depravity, immorality in the spiritual world of the individual in today's globalization.

Keywords: digital technology, cyberspace, "virtual culture", entertainment environment, modern society, "mass culture".

Raqamli texnologiyalar rivojlangan bugungi kunda dunyoning tavsifi, o'lvcholari tubdan o'zgarib bormoqda va insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Shaxs ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi boshlang'ich xususiyatga ega bo'lib, u real va virtual dunyoda o'z ifodasini topadi. Ayni paytda virtual olam kibermakon deb nomlanib, uni zamonaviy insonning mavjudligi uchun "yangi muhit" deb belgilanmoqda.

So'nggi paytlarda "virtual" tushunchasidan foydalanish zamonaviy dunyoga xos jihat bo'lib, tobora ko'proq informatika va kompyuter texnologiyalari doirasidan chiqib ketmoqda. Yaqin vaqtlargacha real bo'lmagan kombinatsiyalar, masalan, "virtual korporatsiya", "virtual pul", "virtual demokratiya", "virtual ta'lim", "virtual madaniyat" kabi tushunchalar, ayniqsa suniy intellekt atamasi endilikda faol ishlatilmoqda. Ijtimoiy jihatdan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i vositasida bir-biri bilan o'zaro bog'langan va bir vaqtda turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterlarning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Agar "kibermakon" atamasining kelib chiqishi haqidagi savolga murojaat qilsak, "kiber" tushunchasining raqamli bazasidan "kosmik" so'zining ikkinchi qismining fazoviy bazalariga yo'naltiradigan bo'lsak, "har bir jamiyat o'z makonini yaratadi", degan Anri Lefebvrning nuqtai nazarini o'rinlidir [1, 45-b]. O'tgan asr oxirlarida kiberhujumning mafkuraviy stereotipi uchta utopik dominantni o'z ichiga olgan ommaviylikka kiritildi: o'zaro kelishib bo'lmaydigan gedonizm, kundalik voqelikdan qochish va hissiy borliqning chegaralarini oshib o'tish uchun an'anaviy mistik istak. Natijada, ommaviy madaniyat doirasida, kompyuter texnologiyalari



tomonidan yaratilgan har qanday interfaol ko'ngilochar muhit o'z-o'zidan kiberpaziya deb nomlandi. Turli xil kompyuter virtual haqiqatining ishlashini ta'minlovchi texnik tizimlarning genezisi, shuningdek ularning zamonaviy qo'llanilish doirasi kiberhujumning mafkuraviy stereotipi bilan deyarli hech qanday aloqasi yo'qligi isbotlangan.


Kibermakon – bu o'z topologiyasida yangi, rizomatik, semiotik makonning bir turi bo'lib, unda odamlar bilan ishlash aqliy faoliyatini osonlashtiradigan va sezilarli darajada tezlashtiradigan zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib belgilar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Kiberkosmik universal maqsadlarga erishish uchun yangi usullarni aniqlash va tushunish imkoniyatlarini izlash vositasi sifatida ishlaydi.

Bugungi global ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hozirgi zamon emas, balki fazoning madaniy hukmronligiga aylanishiga olib keldi. Natijada, aloqa deyarli bir zumda paydo bo'ladi va vaqtni tejaydigan texnologiyalar vaqtni nolgacha teng bo'lgan segmentlarga ajratadilar. XXI asrda texnologiyalar insoniyatning har qanday ehtiyojlarini qondirishning universal vositasiga, yosh avlod madaniyatining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ammo, agar texnologiya butun madaniyatni almashtirishga harakat qilsa, ya'ni, dunyoni texnik haqiqatga aylantirish uchun, bu insoniyat uchun nomaqbul natijaga - o'rta muddatli istiqbolda dunyoqarashni yo'qotishga olib keladi.

Biz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy soha xodimlari jahonda "kiberkurtak" otayotgan va jahon geosiyosiy jarayonlariga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan kibermakon va kiberterrorizmga loqaysizlarcha qarasak kelajak nima bo'ladi va kelgusi avlod oldida nima deb javob beramiz? Buning natijasida, axborot inqilobi sharoitida vujudga kelayotgan global tarmoq jamiyatlari mutasaddi va mutaxassislarni jiddiy tashvishga solmoqda. Bu turdagi jamiyatlar o'zlarini «kiberinternatsional NET», «Internet bolalari», «Internet fuqarolari (netizens)» deb nomlashmoqda. Chiyet ellarda ular Internet orqali yoshlarni birlashtirib, davlatning rasmiy xabarlariga qarshi chiquvchi xalqaro kiberuyushma sifatida siyosiy maydonga chiqmoqda. Albatta, bunday jamiyatlarning faolligi oshib borar ekan, jahonda kechayotgan jarayonlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi aniq. Shunki, virtual makonda berilayotgan "ma'naviy ozuqa" orqali iste'molchini o'zi payqamagan holda shaxs qiyofasini yo'qota boshlaydi, shaxsiy mas'uliyat hissi susayib ketadi, hissiyot aqliy tafakkurdan ustun keladi, o'zini ma'naviy va madaniy jihatdan nazorat qila olmay qoladi. Bunday inson aldovlarga va mishmishlarga ishonuvchan, mashhur shaxslarga taqlid qiladigan, reklamaga beriladigan bo'ladi.

Avlodlar almashinuvi jarayonida ("X" avlod, "Y" avlod, "Z" avlod hamda "Alfa" avlod, shuningdek, texnologiyalarning yuqori sur'atlarini rivojlanishi natijasida mutaxassislarning aytishlaricha 2025-yildan boshlab tug'ulgan yangi avlod "Beta" avlod) xulq-atvor va muomala masalasi alohida o'rin tutadi, chunki avlodlar orasidagi o'zgarishlar nafaqat qadriyatlar va g'oyalar, balki jamiyatdagi xulq-atvor, munosabatlar va ijtimoiy aloqalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Har bir yangi avlod o'zining xulq-atvorini shakllantiradi, bu esa eski va yangi avlodlar o'rtasida muomala va muloqotda yuzaga keladigan tafovutlar va nizolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Xulq-atvor va muomala masalasida har bir avlod o'zining xulq-atvorini va muomalasini yaratadi. Bu, odatda, o'zgaruvchan jamiyat sharoitlariga mos keladi. Yangi avlodlar ko'pincha yanada ochiq, erkin va kommunikativ bo'lishadi.

Kibermakondagi eng ommalashgan ma'naviy tahdidlardan biri "ommaviy madaniyat"dir. Uning asosiy unsuri bo'lgan "pop-psixologiya" yoshlarda jamiyat, ota-ona, oila oldidagi mas'uliyatni o'ldirmoqda. Zero, uning tayanchi – "daromad, foyda g'oyasi va butun hamma narsani, jumladan hayot va sog'liqni ham sotib olish mumkinligiga bo'lgan ishonch"dir [2, 3-b]. Bu ma'naviy illatni ommalashtirish vazifasini dunyoda hozirgi kunda avvalo ommaning "tarbiyachi"si vazifasini zimmasiga olgan internetdagi tarmoqlar, ayniqsa raqamli televideniye bajarmoqda. Alohida qayd etish lozimki, butun dunyoga singdirishga harakat qilayotgan g'arbona individualizmning inson, shaxsning individualligi, o'ziga xosligiga mutlaqo aloqasi



yo‘q. Aksincha, butun dunyoni o‘ziga bo‘ysundirish orzusidagi davlatlar targ‘ib qilayotgan individualizm shaxsning o‘ziga xosligini, alohidaligini o‘ldirishga qaratilgan. Axborotlashgan jamiyatga tanqidiy qaragan Gerbert Shyeler bunday kuchlar uchun axborot tarqatish faqatgina odamlar (axborot iste‘molchilari) podaga aylangandagina foydali bo‘ladi, deb hisoblaydi. “Ommaviy madaniyat” – o‘z auditoriyasiga oson ega bo‘ladigan va tajovuzkor madaniyatdir. V.M.Mejuyev “zamonaviy omma jamiyatining kosmopolitizmi” to‘g‘risida yozar ekan, ushbu hodisani unga qo‘shilish mumkin bo‘lgan, lekin bu holda o‘z milliy yuzini saqlab qolishning iloji qolmaydigan hodisa sifatida ta‘riflaydi [3, 267-b]. Bizningcha ham bunday tizim orqali ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ommaviy iste‘molchi boshqariladi hamda iste‘molchiga real hayotiy tajriba o‘rniga virtual makon taqdim etayotgan sun‘iy va soxta tajriba tutqaziladi.


“Ommaviy madaniyat” insonni haqiqiy, real voqelikdan, hayotning real muammolaridan chalg‘itadi. Hayotini, turmushini sun‘iylashtiradi, virtuallashtiradi. Bu – shaxslararo munosabatlarga ham taalluqli. Begonalashish kuchayib, do‘stlik, ulfatchilik, jonli muloqot odamlar o‘rtasida, birinchi galda yoshlar o‘rtasida kamayib bormoqda. Muloqot makoni endi – internet. O‘zini, o‘zligini namoyon etish internetdagi har xil ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari bu ma‘naviy illatlarning tahdidi haqida gapirib, shunday deydi: “Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan - G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, sur‘atga olinayotgan ba‘zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy. Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san‘atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi” [4, 196-b]. Biz ham ushbu fikrlarga qo‘shilib ijtimoiy makondagi shaxs ma‘naviy olamiga ta‘sir qiluvchi omillarni axloqiy va diniy me‘yorlarimiz asosida shakllantirishimiz va bu borada qat‘iy davlat nazoratini o‘rnatish lozim deb hisoblaymiz.

Yoshlarda kibermakon to‘g‘risida bilim ko‘nikmalarini hosil qilishimiz va bu tushunchani lug‘atlarga kiritmog‘imiz shuningdek, internetdan foydalanish darslari fakultativ sifatida ta‘lim dasturlariga kiritish, maxsus kurs yoki birinchi blok fanlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda fanlarining mavzularidan kelib chiqib, fanlarning ishchi fan dasturlariga alohida mavzu shakllantirib kirgizish kerak.

Kibermakondagi tahdidlar shunday bir universal xarakterga egaki, uning barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta‘sir qilish imkoniyati bor. Xususan, shaxs dunyoqarashiga, jamiyat barqarorligiga, davlat tinchligiga, jamoatchilik fikrini chalg‘itishga va oxiri oqibatda har bir mamlakatning ma‘naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga ham. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma‘lumotni o‘zlashtirish va zararisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o‘zi esa mustahkam irodali bo‘lishi zarur. Har bir mamlakat aholisining asosiy qismi esa bunday imkoniyatga ega emas. Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek “Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas”. Davrlar o‘taveradi, zamonlar almashaveradi. Bu yorug‘ olamga kelgan har bir odamzot avlodi turli o‘zgarish va yangilanishlar sari intilaveradi” [5. 5-b]. Yangi avlod texnologiyalar va raqamli vositalardan faol foydalanish jamiyatda yashayotgan insonlar madaniyatining o‘zgarishiga olib keladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil telefonlar va boshqa raqamli platformalar madaniyatni o‘zgartirishga kuchli ta‘sir qiladi.

Xullas, globallashuv avj olgan ayni zamonda kibermakonda keng targ‘ib qilinayotgan “go‘zal hayot” ko‘plab yoshlar hayotidan real voqelik va haqiqiy hayotni siqib chiqarib, uni virtual voqelik, virtual muloqot bilan almashtirmoqda. Ayni paytda kibermakonda yoshlar ma‘naviy-



axloqiy madaniyati va kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tahdidlarning ko'lami ancha keng. Bularning ichida asosiylar deb quyidagilarni keltirish mumkin. Birinchi o'rinda shaxsning hayoti, o'zligi, qadr-qimmat, ma'naviyati, milliy qiyofasiga qaratilgan tahdidlar; ikkinchisi, millatning ma'naviy tanazzuli, inqirozi va tarixdan izsiz yo'qolib ketishiga qaratilgan ma'naviy tahdidlar; uchinchi, milliy davlatchilikka raxna soladigan, mamlakat taraqqiyotini ortga suradigan iqtisodiydashgan va siyosiydashgan ma'naviy tahdidlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lefevr A. Proizvodstvo prostranstva. –Moskva: 2015. - 45 s.
2. Fedotov V.G. Faktorq sennostnyx izmeneniy na Zapade i v Rossii.// Voprosy filosofii, 2005. № 11.-3 c.
3. Mejuyev V.M. Kulturno-natsionalnaya identichnost kak problema sovremennogo etapa obshchestvennogo razvitiya.//Globalizatsiya v kulturologicheskom izmerenii. -267 c.
4. Mirziyoyev Sh. *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 1-jild.* –Toshkent: O'zbekiston, 2018. -195-196 b.
5. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. -5 b.